

**YASSAVIY MEROSI - TURKIY XALQLARNING TARIXIY  
MADANIYATI VA QADRIYATLARI.  
YASSAVIY MORASI - HISTORICAL CULTURE AND VALUES OF THE  
TURKISH PEOPLES.**

**Maxamatova Marjona Azamatjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti*

*Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti*

*"Vokal va cholg'u ijrochiligi" kafedrası*

*Cholg'u ijrochiligi yo'nalishining 2-bosqich*

*24.41-guruh talabasi*

[marjonmaxamatova@gmail.com](mailto:marjonmaxamatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada turkiy xalqlarning tarixiy madaniyati, urf-odat va an'alarining tarixi haqida ta'kidlab o'tilgan. Turkiy xalqlarning tarixiy taraqqiyoti, ularning boy madaniy merosi va milliy qadriyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Turkiy xalqlarning urf-odatlari, an'analari, og'zaki ijodi, milliy san'ati hamda ijtimoiy hayotida qadriyatlarning tutgan o'rni yoritib beriladi. Shuningdek, tarixiy manbalar asosida turkiy xalqlar madaniyatining shakllanish bosqichlari, o'zaro madaniy aloqalari va zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada turkiy xalqlar madaniy merosining bugungi kundagi saqlanishi, rivojlanishi va yosh avlod tarbiyasidagi o'rni haqida ilmiy xulosalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Turkiy xalqlar, tarixiy madaniyat, milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlar, madaniy meros, og'zaki ijod, milliy san'at, etnomadaniyat, ma'naviy meros, tarixiy taraqqiyot*

**Abstract:** *This article focuses on the historical culture, customs and traditions of the Turkic peoples. The historical development of the Turkic peoples, their rich cultural heritage and national values are scientifically analyzed. The customs, traditions, oral literature, national art and the role of values in the social life of the Turkic peoples are highlighted. Also, based on historical sources, the stages of the formation of the culture of the Turkic peoples, their mutual cultural ties and their significance in the development of modern society are revealed. The article presents scientific conclusions about the preservation and development of the cultural heritage of the Turkic peoples today and its role in the upbringing of the younger generation.*

**Keywords:** *Turkic peoples, historical culture, national values, traditions and customs, cultural heritage, oral tradition, national art, ethnoculture, spiritual heritage, historical development.*

Turkiy xalqlar insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallagan qadimiy va boy madaniy merosga ega xalqlardan hisoblanadi. Ularning tarixi ming yilliklar davomida shakllangan bo‘lib, turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, migratsiyalar hamda madaniy aloqalar natijasida rang-barang va serqirra madaniyat yuzaga kelgan. Turkiy xalqlarning tarixiy madaniyati nafaqat moddiy boyliklarda, balki xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlar, an‘analari, milliy san‘at, musiqa, adabiyot hamda ma‘naviy qadriyatlarda ham o‘z aksini topgan. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Turkiy xalqlarning madaniy merosi o‘zining qadimiyligi, boyligi va tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ushbu meros xalqlarning milliy o‘zligini saqlash, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Turk shaharsozligining eng muhim me‘moriy boyliklaridan biri sifatida tilga olinadigan bu uylar dastlab, XVII-XVIII asrlarda qurilgan. Hozirda mavjud 2000 ga yaqin uyning 800 tasi qonun bilan davlat muhofazasiga olingan.

Safranbo‘luning tarixiy uylari 1994-yilda YUNESKO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan.<sup>5</sup> Turkiy xalqlarning shakllanish jarayoni miloddan avvalgi ming yilliklarning oxiri hamda milodiy birinchi asrlarga borib taqaladi. Olimlarning fikriga ko‘ra, turkiy xalqlarning ilk vatani Markaziy Osiyo hududlari, xususan, Oloy tog‘lari va unga tutash keng dasht hududlari hisoblanadi. Ushbu mintaqa qadimdan ko‘chmanchi chorvachilik, ovchilik hamda hunarmandchilik rivojlangan hudud sifatida tanilgan. Turkiy xalqlar dastlab ko‘chmanchi turmush tarzida yashagan bo‘lib, ular keng dasht va yaylovlarda chorvachilik bilan shug‘ullangan. Milodiy VI asrga kelib turkiy qabilalar siyosiy jihatdan birlashib, tarixda muhim o‘rin tutgan Turk xoqonligi davlatini tashkil etgan. Ushbu davlat turkiy xalqlarning siyosiy, harbiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Turk xoqonligi davrida turkiy xalqlar hududi kengayib, ular Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Sibir hamda Yaqin Sharq hududlariga tarqalgan. Ayniqsa, O‘rxun vodiysi hududida topilgan qadimgi bitiklar turkiy xalqlarning ilk yozma manbalari hisoblanadi. Ushbu yodgorliklar turkiy xalqlarning davlat boshqaruvi, urf-odatlar, harbiy yurishlari va ijtimoiy hayoti haqida muhim tarixiy ma‘lumot beradi. Shunday qilib, turkiy xalqlar qadimdan Markaziy Osiyo hududlarida shakllanib, tarix davomida keng hududlarga tarqalgan hamda boy tarixiy-madaniy meros yaratgan xalqlar qatoriga kiradi.

Turkiy xalqlar tarixida buyuk mutasavvif, shoir va ma‘naviy murshid sifatida Ahmad Yassaviy alohida o‘rin egallaydi. U XII asrda yashab ijod qilgan, o‘z davrida nafaqat diniy va axloqiy sohada, balki ijtimoiy-ma‘naviy hayotda ham ulkan ta‘sir ko‘rsatgan. Ahmad

<sup>5</sup> P.QAHHOROV- “Turkiy xalqi tarixi” [1-bet]:

[https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54\\_Qaxorov\\_Pulotjon\\_Xursanmurodovich\\_373-378.pdf](https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54_Qaxorov_Pulotjon_Xursanmurodovich_373-378.pdf)

Yassaviy nafaqat Markaziy Osiyo, balki keng turkiy hududlarda xalqning ongini uyg'otgan, ularni ma'naviy jihatdan kamolga yetishga chorlagan. Uning hikmatlari asrlar davomida milliy va diniy qadriyatlarimizni mustahkamlashga, yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Shu bois Yassaviy merosi bugungi kunda ham turkiy xalqlar uchun ma'naviy uyg'onishning muhim manbai bo'lib qolmoqda. Yassaviy ta'limotini chuqur o'rganish va uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos talqin qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.


**Ahmad Yassaviy hayoti va tariqati.** Ahmad Yassaviy 1103-yilda Sayram shahrida tug'ilgan. Yoshligidan Qur'on va hadis ilmlarini chuqur o'rganib, keyinchalik mashhur mutasavvuf Yusuf Hamadoniydan saboq olgan. O'z ustozining izidan borib, Yassaviy tasavvuf maktabini shakllantirdi. U yaratgan Yassaviya tariqati tasavvufdagi eng yirik suluklardan biri bo'lib, xalq hayotiga bevosita singib ketdi. Yassaviy ta'limotining o'ziga xos jihati shundaki, u oddiy xalqning tilida, xalqona uslubda yuksak falsafiy va diniy g'oyalarni ifoda etdi. Bu esa uning hikmatlarini keng ommaga yetib borishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa, Yassaviy xalq orasida katta obro' e'tibor qozondi va uning g'oyalari asrlar davomida yashab keldi.

**“Devoni hikmat” – ma'naviy uyg'onish manbai.** Ahmad Yassaviyning asosiy asari “Devoni hikmat” bo'lib, unda inson kamoloti, nafsi tarbiyalash, halollik, sabr, adolat, vatanparvarlik va poklik kabi qadriyatlar madh etiladi. Hikmatlar she'riy shaklda bo'lib, xalq og'zaki ijodiga yaqin uslubda yozilgan. Shuning uchun ham ular xalq orasida qo'shiq sifatida kuylangan, rivoyat va ertaklarga qo'shilib ketgan. Hikmatlar turkiy xalqlarning ma'naviy uyg'onishida quyidagi jihatlari bilan manba bo'ldi. Oddiy xalq uchun tushunarli tilda diniy-axloqiy g'oyalarni yetkazdi, turkiy xalqlarning milliy o'zligini, tilini, ma'naviy birligini mustahkamladi.<sup>6</sup> Yoshlarni to'g'rilik, halollik va adolatga chorlab, ularni tarbiyalashda amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qildi. Yassaviy hikmatlaridagi asosiy g'oyalar kamtarlik, kibr va mag'rurlikni eng katta illat deb bilgan. Uning fikricha, inson qanchalik bilimli yoki boy bo'lmasin, boshqalar oldida kamtar bo'lishi kerak. Bu g'oya turkiy xalqlar orasida insoniylik va birodarlikni mustahkamladi. Sabr, hayot sinovlariga bardosh berish, mashaqqatlarga sabr qilish Yassaviy ta'limotida muhim fazilatdir. U sabr qilgan inson oxir-oqibat najot topishini ta'kidlaydi.

**Halollik va adolat.** Yassaviy hikmatlarida halol mehnat eng yuksak qadriyat sifatida madh etiladi. U haromdan tiyilishni, adolatni jamiyatning asosiy tayanchi sifatida ko'rsatadi. Yassaviy vatanparvarlik xalq birligi, yurt ravnaqi uchun fidoyilikni targ'ib

<sup>6</sup> Ahmad Yassaviy. “Devoni hikmat”. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti – 1991-yil [2-3-b]:

<file:///C:/Users/%D0%9C%D1%83%D1%85%D0%B0%D0%BC%D0%BC%D0%B0%D0%B4/Downloads/Yosh+olimlar+3011.pdf>



qiladi. U milliy qadriyatlarni asrash, xalq manfaatini ustun qo'yishni ta'kidlaydi. Poklik, qalb va amallarda poklik Yassaviy ta'limotining markazida turadi. U poklikni nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayot mezonini sifatida ko'rsatadi.

**Yassaviy ta'limotining turkiy xalqlarga ta'siri.** Ahmad Yassaviy hikmatlari turkiy xalqlarning diniy va milliy uyg'onishida beqiyos ta'sir ko'rsatdi. Uning g'oyalari tufayli turkiy xalqlar quyidagi sohalarida yangi bosqichga ko'tarildi:

1) **Diniy hayot:** Yassaviy xalq ongiga sof islomiy qadriyatlarni singdirdi.

2) **Axloqiy tarbiya:** Hikmatlar orqali yoshlar halollik, sabr, kamtarlik, adolat kabi fazilatlarda tarbiyalandi.

3) **Milliy uyg'onish:** Yassaviy o'z asarlarini turkiy tilida yozib, xalqni o'z ona tilida fikrlashga undadi. Bu esa milliy o'zlikni asrashda katta ahamiyat kasb etdi.

4) **Madaniyat va san'at:** Hikmatlar xalq qo'shiqlari, dostonlari va rivoyatlariga singib, madaniy merosimizning bir bo'lagiga aylandi. Bugungi kun uchun dolzarblik Ahmad Yassaviy hikmatlari faqat tarixiy ahamiyatga ega emas, balki, bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida ulkan manbadir. Globalizatsiya davrida moddiy manfaat ustuvor bo'lib, axloqiy qadriyatlarga befarqlik kuchayib borayotgan bir vaqtda Yassaviy hikmatlari yoshlarni ma'naviyatga chorlaydi. Kamtarlik va sabr yoshlarni toqatli, mehnatkash qilib tarbiyalaydi. Halollik va adolat, korrupsiya va insofsizlikka qarshi ma'naviy qurol bo'lib xizmat qiladi. Vatanparvarlik – yoshlarni yurt taqdiriga befarq bo'lmaslikka undaydi. Poklik – inson qalbi va jamiyatni axloqiy inqirozdan saqlaydi. Ahmad Yassaviy merosi turkiy xalqlar ma'naviy uyg'onishining eng muhim manbalaridan biridir. Uning hikmatlari asrlar davomida xalq ongini uyg'otib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yassaviy hikmatlari yoshlarni kamtar, sabrli, halol, adolatli va vatanparvar qilib tarbiyalaydi.

Turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy rivojlanishi ularda shakllangan go'zallik va axloqiy qadriyatlarning o'ziga xos tizimini yaratgan. Bu qadriyatlar asrlar davomida o'zlarining an'anaviy urf-odatlarini, etnik me'yorlari va diniy e'tiqodlari asosida shakllanib kelgan. Ammo, bugungi kunda globalizatsiya va texnologik taraqqiyotning ta'siri bilan bu qadriyatlar o'zgarishlarga duch kelmoqda. Modernizatsiya va zamonaviy ijtimoiy hayotning yangi talablari, shuningdek, madaniy almashinish jarayonlari go'zallik va axloqiy me'yorlarni yangi shakllarga moslashtirayotganini ko'rish mumkin.<sup>7</sup>

Turkiy xalqlarda go'zallik va axloqiy qadriyatlarning o'zgarishiga oid tadqiqotlar asosan sotsiologiya, madaniyatshunoslik, antropologiya va tarixshunoslik sohalarini o'z ichiga oladi. Adabiyotlarda bu mavzu ko'plab mutaxassislar tomonidan o'rganilgan, ammo aniq bir metodologik yondashuvlar va muayyan xulosalar to'liq shakllanmagan. Bu yerda

<sup>7</sup> P.QAHHOROV- "Turkiy xalqi tarixi" [2-3-4-bet]:

[https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54\\_Qaxorov\\_Pulotjon\\_Xursanmurodovich\\_373-378.pdf](https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54_Qaxorov_Pulotjon_Xursanmurodovich_373-378.pdf)

tahlil qilinadigan asarlar orasida turkiy xalqlarning qadimiy an'analari va madaniy kodlari, zamonaviy dunyoda esa globalizatsiya va texnologik o'zgarishlarning ta'siri haqida yozilgan ilmiy ishlar mavjud. Zero, "Insoniyat o'zini globallashtirgan, madaniyatlar uyg'unlashayotgan dunyoda yashayotganini idrok etmoqda. Shuning uchun har bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va xalqaro o'zgarish, islohotlar umuminsoniy madaniyatga nima beradi, degan savol nuqtayi nazaridan baholanmoqda.<sup>8</sup> Ammo global taraqqiyot milliy etnomadaniyatlarni rad etmaydi, balki ularni yanada rivojlantirishni, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatini mustahkamlashni nazardan tutadi. Jahon xalqlari integratsiya va globalizatsiya yo'lidan borayotgan ekan, ushbu jarayonlarni pozitiv voqelikka aylantirish uchun etnomadaniyatlar va milliy madaniyatlar oldidagi muammolarni ham hal etish talab qilinadi". Bu o'zgarishlar, ayniqsa, yoshlar orasida ko'zga tashlanadi, chunki ular o'zlarining shaxsiy identifikatsiyasini qurishda an'analarga asoslangan qadriyatlar bilan global madaniyatning ta'sirini muvozanatlashga harakat qilmoqda.

### Xulosa

Turkiy xalqlarda etnik me'yorlarning zamonaviy dunyo bilan uyg'unlashuvi ijtimoiy hayotda yangi normalar va madaniy shakllar yuzaga kelishiga olib keladi. Ushbu maqola turkiy xalqlarda go'zallik va axloqiy qadriyatlarning o'zgarishiga oid jarayonlarni tahlil qiladi. Xususan, qadimiy urf-odatlar va an'analar asosidagi qadriyatlarning globalizatsiya va texnologik taraqqiyot ta'sirida qanday o'zgarayotganini, jamiyatdagi yangi me'yorlarning shakllanishini va yoshlar orasidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqadi. Maqola, shuningdek, salbiy o'zgarishlarga qarshi kurashish zaruratini va bu jarayonlarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi ahamiyatini ko'rsatishga intiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad Yassaviy. "Devoni hikmat". Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1991-yil [2-3-b]:

<file:///C:/Users/%D0%9C%D1%83%D1%85%D0%B0%D0%BC%D0%BC%D0%B0%D0%B4/Downloads/Yosh+olimlar+3011.pdf>

2. P.QAHHOROV. "Turkiy xalqlar tarixi" [1-bet]:

[https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54\\_Qaxorov\\_Pulotjon\\_Xursanmurodo\\_vich\\_373-378.pdf](https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54_Qaxorov_Pulotjon_Xursanmurodo_vich_373-378.pdf)

3. P.QAHHOROV. "Turkiy xalqlar tarixi" [2-3-4-bet]:

<sup>8</sup> A. Hojiahmedov - O'zbek adabiyoti tarixida Yassaviy ta'limoti madaniyatining ta'siri. //O'zbek tili va adabiyoti.- 2017-yil.[3-4-betlar]



[https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54\\_Qaxorov\\_Pulotjon\\_Xursanmurodo\\_vich\\_373-378.pdf](https://www.oriens.uz/media/conferencearticles/54_Qaxorov_Pulotjon_Xursanmurodo_vich_373-378.pdf)

4. A.Hojjahmedov “O‘zbek adabiyoti tarixida Yassaviy ta’limoti madaniyatining ta’siri”. O‘zbek tili va adabiyoti. 2017-yil.

